

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

X.X.Raxmatova	
Naqshbandiya ta'limotida murosa falsafasiga munosabatning o'ziga xos xususiyatlari	98
X.A.Yulbarsova	
Bo'lajak sotsiologlarda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishning nazariy asoslari	102
A.B.G'ulomov	
Yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirishning falsafiy jihatlari	107
B.Raxmanov	
Ibn Sinoning nochiziqli tafakkur asosidagi falsafiy qarashlarida sinergetik tamoyillar	110
N.A.Imomova	
Mehnat migratsiyasi vujudga kelishining ijtimoiy omillar va shart-sharoitlari	117
L.R.Usmonova	
Falsafiy komparativistika qadimgi dunyo madaniy muloqoti muammolari kontekstida	122
B.S.Ganiyev, U.S.Maksumova	
O'zbekistonda tadbirdorlik madaniyati dinamikasining ijtimoiy-falsafiy jihatlari	128
A.Tashanov	
Zigmund Freyd va Erix Fromm falsafasida inson destruksiyasining ayrim talqinlari	135
A.A.Qambarov	
Ma'rifatli avlodni tarbiyalashning ijtimoiy-falsafiy tahlili	140
D.X.Gafforova, I.I.Rizayev	
O'rta asrlar O'zbekiston maqbaralarida tug'larning islom va tangrichilikdagi muqaddas timsoliy vazifalari	144
J.J.Shodiyev	
Insonlarni qadrlash va uni ma'naviy-axloqiy jihatdan qo'llab-quvatlashda din va falsafaning o'rni	150
D.O.G'afurov	
O'zbek milliy nikoh marosimlarining transformatsion xususiyatlari va uning ma'naviy qiyoferasi	155

SIYOSAT

R.B.Mirzabayev	
Yangi O'zbekistonda davlat xizmati sohasi takomillashuvi jarayonlari	159
R.A.Ikramov	
Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda huquqiy ta'lim-tarbiya va ommaviy axborot vositalarning o'rni	168
D.Sh.Maxkamov	
Nizolarni hal etishda mediatsiya institutining o'rni va ahamiyati	173
M.M.Safarov	
Yangi O'zbekiston yoshlari siyosiy ongi va madaniyatining transformatsiyalashishini futurologik istiqbollari	177

ТАРИХ

A.Sharafiddinov	
Farg'onan viloyatining Andijon uyezdida paxtachilik va paxta sanoatining shakllanishi (XIX asr oxiri – XX asr boshlari)	185
M.F.Rasulov	
O'zbekiston minoralari haqida ayrim mulohazalar (qadimgi va o'rta asrlar davri)	190
M.H.Isamiddinov, M.H.Hasanov, N.Qambarov	
2022-yili Quva arkida olib borilgan arxeologik qazishma ishlari	196
F.E.Atajanova	
Xorazmda xalq maorifi tizimi rivojlanishi: muammolar, vazifalar va natijalar	200
B.T.Mirzaqulov	
Mang'itlar sulolasi davrida Buxoro amirligida davlat boshqaruvi	204

**TALABALARLING BADIY ADABIYOT MATNLARINI RAQAMLI TEKNOLOGIYALAR
INTEGRATSIYASI YORDAMIDA O'ZLASHTIRISH XUSUSIYATLARI**

**ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ СТУДЕНТОВ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ТЕКСТОВ С
ПОМОЩЬЮ ИНТЕГРАЦИИ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ**

**CHARACTERISTICS OF STUDENTS' DEVELOPMENT OF FICTION TEXTS WITH THE
HELP OF THE INTEGRATION OF DIGITAL TECHNOLOGIES**

Mo'minova Maftuna Alijonovna¹

Mo'minova Maftuna Alijonovna¹

— Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, "Ingliz tili amaliy kursi" kafedrasи o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqola talabalarning badiiy adabiyyot matnlarini raqamli texnologiyalar integratsiyasi yordamida o'zlashtirishda talabalar amaliy muammolarni halqilish haqida. Raqamli texnologiyalar ingliz tilidan mashg'ulotlarni samarali tashkil etishga, yoshlarning muhim hayotiy yutuqlarini qondirishga, o'z nuqtai nazarlarini ilmiy asoslashga imkoniyat yaratadi. Maqolada talabalarning motivatsiyasini yaxshilash uchun kompyuter va onlayn resurslardan foydalanish samaradorligi masalalari ko'rib chiqilgan.

Аннотация

Эта статья о том, как студенты решают практические задачи по овладению текстами художественной литературы, используя интеграцию цифровых технологий. Цифровые технологии дают возможность эффективно организовать обучение на английском языке, познакомиться с важными жизненными достижениями молодых людей, научно обосновать их точку зрения. В статье рассматриваются вопросы эффективности использования компьютерных и онлайн ресурсов для повышения мотивации студентов.

Abstract

This article is about how students solve practical problems in mastering the texts of fiction using the integration of digital technologies. Digital technologies provide an opportunity to effectively organize training from English, meet important life achievements of young people, scientifically substantiate their point of view. The article deals with the issues of the efficiency of using computer and online resources to improve students' motivation.

Kalit so'zlar: Raqamli texnologiyalar, metodlar, integratsiya, badiiy adabiyyot matnlari, o'quv materiali, metod va usullar, innovatsion ta'lif,

Ключевые слова: цифровые технологии, методы, интеграция, художественные тексты, учебный материал, приемы и методички, инновационное образование

Key words: digital technologies, methods, integration, texts of fiction, educational material, methods and methods, innovative education

KIRISH


Raqamli texnologiyalarning jadal sur'atlar bilan rivojlanishi axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan keng foydalanish, ta'lif jarayoniga ularni tatbiq qilish orqali bilim oluvchilarning, malaka va ko'nikmalarini oshirish hamda fan-texnologiyalarning so'nggi yutuqlarini ta'lif jarayoniga joriy etishni talab etmoqda. Shu bilan birga, yangi mazmundagi o'qitish shakllaridan foydalanish, innovatsion tafsifdagi ta'lif vositalarini amaliyatga qo'llash, tahsil oluvchilarda motivatsion doiralarni kengaytirishga ehtiyoj mavjud. Bu esa, ta'lif jarayonida akademik bilimlarni o'zlashtirishga mo'ljallangan raqamli texnologiyalarini tashkil etishni taqozo etadi.

Axborot sivilizatsiyasi davrida nafaqat insonga o'z-o'zini rivojlantirish sub'ekti sifatida, balki umuman ta'lif tizimiga bo'lgan talablar oshdi. Yolg'iz zamonaviy ta'lifning asosiy vazifalaridan biri o'qitishning yangi usullarini izlash va olingan bilimlarning yangi sifatiga o'tishdir. Bugungi kunda o'qituvchilar o'quv jarayonida belgilangan ta'lif maqsadlariga rioya qilgan holda o'qitish usullarini o'zgartirishga va tashkil etishning yangi usullarini topishga majbur. Ta'lifning samaradorligi va ratsionalligi muammosi o'rganilayotgan barcha fanlar, shu jumladan chet tillarini o'qitish uchun ham dolzarbdir

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Raqamli texnologiyalar ingliz tilidan mashg'ulotlarni samarali tashkil etishga, yoshlarning muhim hayotiy yutuqlarini qondirishga, o'z nuqtai nazarlarini ilmiy asoslashga imkoniyat yaratibgina qolmay, ingliz tilini o'qitishda samarali natijalarni ham beradi. Shu munosabat bilan, raqamli texnologiyalar talabalarning badiiy adabiyot matnlarini ekspressiv o'zlashtirish, kelajak faoliyatiga yo'naltirilgan kreativ qobiliyatlarining rivojlanganlik darajasini aniqlash va monitoring asosida tavsiyalar ishlab chiqishga yordam beradi.

Bugungi kunda ta'lif muhitida quydagi qo'llanilayotgan raqamli texnologiya ko'rinishlarini tavsiflash mumkin: Veb-kvest texnologiyalari, Qo'shimcha reallik; Virtual reallik; Mashina yordamida o'qitish; Robototexnika; 3D-pechat, bulutli va boshqalar (1-rasm).



1.2-rasm. Oliy ta'lifda qo'llanilayotgan raqamli texnologiyalar turlari

Raqamli texnologiyalar talabalarga badiiy adabiyot matnlari vositasida ingliz tilini o'zlashtirishlarida samarali natija beradi. O'qitishda asosiy e'tibor kompyuterli o'yin shaklidagi o'quv faoliyatiga va veb-kvestlarga qaratish samarali natija beradi. Bu esa, ko'p bilim berish imkoniyatlарини яратиб берувчи методлардан foydalanish orqali amalga oshadi. Bunga eng avvalo, yangi o'quv materialini mazkur texnologiyalar asosida o'zlashtirish oson kechishini kuzatish mumkin. Ingliz tilidagi yangi mavzu veb kvest yoki kompyuterli o'yinlar, yohud bulutli texnologiyalar asosida barcha talabalarning faol ishtirokida olib borilgandagina, ularda o'rganilayotgan mavzuga bo'lgan qiziqish ortadi. O'quv jarayonida kvestlardan foydalanish, shunchaki o'quv materialni platformadan yuklab olish emas, balki vaziyatli topshiriq, jumboq holatidagi masalani yechish, talabalarda ko'proq qiziqish uyg'otadi.

Ingliz tilini o'qitishda raqamli texnologiyalar sohasi bilan aloqadorlikning ayrim jihatlari bo'yicha o'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalar sharoitida talabalarning badiiy adabiyot matnlarini o'zlashtirish masalasi to'laqonli o'z yechimini topmaganligini kuzatishimiz mumkin.

Bugungi zamонави и rivojlangan jamiyatda talabalarni har tomonlama o'qitish dolzarb muammo bo'lib, u ko'p o'zgaruvchan natijani, ijtimoiy hayotda o'z o'rnini topa oladigan, axloqiy yetuk shaxsni rivojlantirish va shakllantirishni ta'minlaydigan malaka oshirishning ketma-ket bosqichlaridan iborat.

U.Xo'jamnazarov [5] tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda ingliz tilini o'qitishda talabalarda frazeologik birliklar bilan birga rivojlantirilishi muxum bo'lgan stilistik ko'nikmalar va muloqot maqsadi til vositalarini tanlash shartlari va usullarini tahvil qilishga asoslanganligini namoyon etadi. Muallif fikricha, talabalar tomonidan aloqa sharoitlarini tezkor aniqlash – lingvistik bo'limgan omillarni hisobga olishning tezligi va to'g'rilingiga e'tibor berish; ichki nutqda qurilayotgan matnning asosiy maqsadlari va mazmunini anglash; «kommunikativ yadro» ni tashkil etish muhimdir. Muallifning fikrini tasdiqlagan holda, shuni ayta olamizki, badiiy matnni tahlil qilar ekan, talaba nafaqat ingliz tilidagi stilistikaga oid konstruksiyalarni o'rganadi, balki bu sohadagi uning bilimlari ortib boradi, yangilanadi va ingliz tilidagi so'zlarning dastlabki to'plami, iboralar, ularni birlashtirish qoidalari, stilistik ma'nolarni obyektiv nutq holati bilan to'g'ri bog'lash qobiliyatini shakllanadi.

ADABIYOTSHUNOSLIK

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Raqamli texnologiyalar yordamida badiiy mantdag'i nutq vazifasi-muallif tomonidan taqdim qilingan fikr-mulohazalarini talabalarga axborot-kommunikatsiya vositalari asosida yetkazishdan iborat. Shunday ekan, fikrimizcha, talabalarning badiiy adabiyot matnlarini raqamli texnologiyalar asosida o'zlashtirishlarida:

- matn qismlari o'rtasida mantiqiy aloqalarni o'rnatish;
- asosiy fikrlarni saralash;
- raqamli taqdim etilgan matn tahlilini o'tkazish;

- umumlashmalarni shakllantirish malakalarini oshirish lozim. Bu yerda umumiyl akademik ko'nikmalar badiiy matnni keng mulohaza qilish kabi ko'lamli vazifalarni hal qilish uchun ishlatalishi zarur.

D.N.Taylakovaning "Ona tilidan ta'limiy maqsadlarga mo'ljallangan elektron resurslarni yaratish metodikasi" mavzusidagi dissertatsiyasida ona tilini o'qitishda axborot-resurslaridan foydalanish, o'qitishda innovatsion texnologiyalarga asoslangan ma'ruza, munozara, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarining samaradorligini oshirish muhim bo'lib hisoblanishi xaqidagi ma'lumotlar keltirilgan[108]. Muallif fikricha, "o'qitish jarayonida o'quvchilar tanqidiy fikrlashga, shart-sharoitlarni va tegishli axborotni tahlil qilish asosida murakkab muammolarni yechishga, alternativ fikrlarni chamalab ko'rishga, ulab va asosli ravishda qarorlar qabul qilishga, diskussiyalarda ishtiroy etishga, boshqalar bilan muloqat qilishga o'rganadilar"[9]. Muallifning fikriga qo'shimcha tariqasida aytish mumkinki, buning uchun darslarda individual, juftli va guruhli ishlar tashkil etiladi, izlanuvchi loyihamalar, rolli o'yinlar qo'llaniladi, hujjatlar va axborotning turli manbalari bilan ish olib boriladi va raqamlashtirilgan ijodiy ishlar qo'llaniladi.

Talabalarning badiiy adabiyot matnlarini raqamli texnologiyalar integratsiyasi yordamida o'zlashtirish quyidagi qulayliklarga ega:

- talabalar tomonidan badiiy adabiyot matnlarini bo'yicha ijodiy topshiriqlarni bajarishda, ularning kreativlik sohasini kengaytirishda;
- o'quv mashg'ulotidagi vaziyatli muammolarni hal etishda;
- o'quv mashg'ulotini tashkiliy va tarbiyaviy maqsadini amalga oshirishda e'tiqodni shakllantirishda;
- o'quv natijalarini baholash va ilmiy muammolarni hal etishda katta samara beradi.

Talabalarning badiiy adabiyot matnlarini o'zlashtirishlarida raqamli texnologoyalar integrativ ta'lim berish imkoniyatini kengaytirib, taqdim qilinayotgan o'quv materialini bayon etish natijasida mavzuning maqsadi, uning asosiy mazmuni va o'qituvchi tomonidan qo'yiladigan savollar talabalarga tushunarli bo'lishiga erishiladi.

Ma'lumki, an'anaviy ta'limda talabalar o'qituvchi tomonidan taqdim qilinayotgan tartibili ma'lumotni tinglab, tayyor ko'rsatmalar asosida bilim oladilar. Bunday reproduktiv ta'lim jarayonida talabalar o'qituvchi yozdirgan axborotni yodlash, o'xshatib misol keltirish, o'qituvchidan eshitganlarini takrorlash kabi faoliyat bilan shug'ullanib, ta'lim jarayonining oddiy kuzatuvchisi, tinglovchisi bo'lib qoladilar.

Ingliz tilini o'qitishda integrativ ta'lim talabalarni mustaqil fikrlashga undaydi, ularda ijodkorlikni rivojlantiradi, bilimlar sistemasini takomillashtirishni ta'minlay oladi. Shu o'rinda, talabalarning bilimlarni mukammal o'zlashtirish qobiliyatlarini rivojlanishida muhim omillardan biri talabalarda ijodkorlik sifatlarini shakllantirish, mustaqil fikrlashga o'rgatish hisoblanadi.

XULOSA

Talabalarning badiiy adabiyot matnlarini raqamli texnologiyalar integratsiyasi yordamida o'zlashtirishda talabalar amaliy muammolarni hal qilish, dasturiy ta'minot va veb-saytlardan unumli foydalanishga o'rganishadi. O'quv materialini o'zlashtirish asnosida talabalar tomonidan tayyorlangan ko'rgazmali qurollar, chizmalar, yozilgan yozma ishlar, bajarilgan mashqlarni tahlil qilish orqali talabaning ijodkorligi, topqirligi, idroki, fikr yuritish doirasi haqida xulosalar chiqarilishiga imkoniyat kengayadi.

Shunday qilib, talabalarning badiiy adabiyot matnlari orqali o'quv materialini samarali o'zlashtirishlarida ingliz tilini integrativ o'qitish tanlangan grammatik, leksik va fonetik materiallarga asoslangan talab qilinadigan nutq qobiliyatlarini va qobi liyatlariga mos keladigan o'qitishning kommunikativ mazmuni talabalarning nutqiy aloqalari faolligini ta'minlaydi. Ta'lim tendensiyalarini

o'rganish metodologiyasi, bir tomonidan, o'quv mazmuni tizimidagi obyektiv integral jarayonlarni bilish usullariga, ikkinchi tomondan, o'rganishni takomillashtirish uchun ishlataladigan metod va usullarga asoslanishi kerak.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Алиев С.Н. Научно–педагогические основы формирования профессиональной компетенции будущих учителей иностранных языков в педвузах Республики Таджикистан (на материале английского языка): дисс. ... д-ра пед. наук. – Душанбе, 2009. – 374 с.
2. Ахмедова Л.Т. Рол и место педагогических технологий в профессиональной подготовке студентов. –Т.: Фан ва технология. –2009;.
3. Henry Sweet. The practical study of languages. a guide for teachers and learners. -London. Bedford street, covent garden. 1899. 3. 302
4. Jalolov J.J. Chet til o'qitish metodikasi. Chet tillar oliv o'quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik. "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi. – Т.: 2012. –B.429;
5. Maximilian Berlitz. Method for teaching modern languages/ Elektron manba: <http://books.google.com/>
6. Michel West. Innovation in work teams Stolberger, J., West, M., Sacramento, C. 13/06/2019 In: The Oxford Handbook of Group Creativity and Innovation. Oxford : Oxford University Press p. 231-252. – 22 р.
7. Пикеева Е. Н. Метод проектов на уроках иностранного языка // Молодой ученый. 2014. – №7. – С. 534-536. Электрон манба: – URL <https://moluch.ru/archive/66/11111/>
8. Полат Е.С. Новые педагогические и информационные технологии. – М.: 2009. – 203 с.
9. Роберт И.В. Информационные и коммуникационные технологии в образовании //учебно–Методическое пособие. – Москва: Дрофа, 2008. – 312с.
10. Яковлева Н.О. Педагогическое проектирование инновационных систем : дис. ... д-ра педаг. наук . – Челябинск, 2018. – 355 с.
11. Ярулов А.А. Интегративное управление формированием среды образования в школе: дисс. ... д-ра педаг. наук. – Москва, 2019. – 415 с.